

TA'LIM JARAYONIDA HAMKORLIK PEDAGOGIKASINING QO'LLANILISHI

Raximova Nozima G`ayrat qizi

Toshkent Kimyo xalqaro universiteti

“Boshlang`ich ta`lim” 4-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: Avezova Rohila Ruzimbayevna

“Pedagogika va psixologiya” kafedrası v.b dotsenti

Annotatsiya

Ushbu maqolada ta`lim jarayonida hamkorlik pedagogikasining o`rni va ahamiyati yoritilgan. Hamkorlik pedagogikasi o`qituvchi va o`quvchilar o`rtasida o`zaro hamkorlikka asoslangan ta`limiy faoliyatni tashkil etish jarayonini anglatadi. Unda bilimlarni birgalikda egallash, o`zaro yordam va jamoaviy ishlash orqali ta`lim samaradorligini oshirishga alohida e`tibor qaratiladi. Tadqiqotda hamkorlik pedagogikasining asosiy tamoyillari – o`zaro ishonch, tenglik, mas`uliyat va faol muloqotning ta`lim jarayonidagi ahamiyati ochib beriladi.

**Kalit so`zlar:** Hamkorlik, ta`lim-tarbiya, psixologik, axloqiy, intellektual, pedagogik.

Аннотация

В данной статье освещаются роль и значение педагогики сотрудничества в учебном процессе. Педагогика сотрудничества понимается как организация учебной деятельности, основанной на взаимном взаимодействии между учителем и учащимися. Особое внимание уделяется повышению эффективности обучения посредством совместного освоения знаний, взаимопомощи и работы в коллективе. В исследовании раскрываются основные принципы педагогики сотрудничества – взаимное доверие, равенство, ответственность и активное общение, а также их значение в учебном процессе.

Ключевые слова: Сотрудничество, воспитание, психологическое, нравственное, интеллектуальное, педагогическое.

Annotation

This article highlights the role and importance of cooperative pedagogy in the educational process. Cooperative pedagogy refers to the organization of educational activities based on mutual collaboration between teachers and students. It emphasizes enhancing the effectiveness of education through joint knowledge acquisition, mutual assistance, and teamwork. The study reveals the main principles of cooperative pedagogy – mutual trust, equality, responsibility, and active communication – and their significance in the educational process.

Key words: Cooperation, education, psychological, moral, intellectual, pedagogical.

Kirish

Bugungi kunda ta'lim jarayonida o'quvchi shaxsini har tomonlama rivojlantirish, uning bilim olishga bo'lgan qiziqishi va motivatsiyasini oshirish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Shu nuqtayi nazardan hamkorlik pedagogikasi ta'limda samaradorlikni ta'minlashning zamonaviy yo'nalishlaridan biri sifatida alohida o'rin tutadi. Hamkorlikka asoslangan ta'lim jarayonida o'qituvchi va o'quvchi o'zaro hamkorlik, ishonch va tenglik tamoyillari asosida faoliyat olib boradi. Bu yondashuv o'quvchilarda nafaqat bilimlarni o'zlashtirish, balki mustaqil fikrlash, ijodiy yondashuv, o'z fikrini erkin ifoda etish hamda jamoada ishlash ko'nikmalarini shakllantirishga xizmat qiladi.

Hamkorlik – bu insoniyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo'lib, u turli millat, irq, din va ijtimoiy qatlam vakillarining umumiy maqsad sari birlashuvini, o'zaro hurmat va ishonch asosida faoliyat yuritishini anglatadi. Mazkur tushuncha nafaqat ta'lim sohasida, balki siyosiy, iqtisodiy, madaniy va ijtimoiy hayotning barcha

jabhalarida dolzarb ahamiyat kasb etadi. Hamkorlikning mustahkam o‘rin egallashi, eng avvalo, jamiyatda barqarorlik, totuvlik va taraqqiyotni ta‘minlash ehtiyoji bilan izohlanadi. Zero, insonlar o‘rtasidagi o‘zaro hamkorlik va kelishuvsiz taraqqiyot jarayonini tasavvur etib bo‘lmaydi[1].

Hamkorlik pedagogikasining ta‘lim jarayoniga joriy etilishi zamonaviy o‘quv metodlari va interfaol usullar bilan uyg‘unlashib, o‘quvchilarni faol subyekt sifatida shakllantirishga, ularning ijtimoiy hamda shaxsiy rivojlanishiga ijobiy ta‘sir ko‘rsatadi. Shuningdek, mazkur yondashuv ta‘limni insonparvarlik ruhida tashkil etish, har bir o‘quvchining qobiliyatlarini ochish va ularni qo‘llab-quvvatlash imkonini beradi. Shu bois hamkorlik pedagogikasini o‘rganish va uni ta‘lim jarayonida samarali qo‘llash bugungi pedagogika fanining dolzarb masalalaridan biri hisoblanadi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA

Hamkorlik– turli davlatlar rahbarlari, siyosiy oqimlar, partiyalar, jamoat tashkilotlari, yakka shaxslarning o‘zaro muloqotida yagona xulosa va yechimga kelish jarayonidir. Muloqotlar boshlanishida fikrlar xilma-xilligi ustuvor bo‘ladi[2].

Hamkorlikda o‘qitish – bu o‘qituvchining ta‘lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilar guruhi, yakka o‘quvchi hamda butun sinf bilan o‘zaro samarali hamkorlikni tashkil qilishi bilan birgalikda, o‘quvchilarning ham o‘zaro qo‘llab-quvvatlovchi hamkorligini amalga oshirishdagi instruktaaj va interfaol jarayonlarni ifodalovchi ommalashgan iboradir[3].

Tahliliy o‘rganishlar jarayonida hamkorlik pedagogikasi asosida ta‘lim-tarbiya jarayonini takomillashtirishning quyidagi mezonlari va ko‘rsatkichlari ta‘lim-tarbiya jarayonidagi o‘zaro birgalikdagi faoliyatning dialogik tavsifga (dialogik munosabatlar jarayonidagi subyektlarning kommunikativ ustanovkalari) egaligi; ta‘lim-tarbiya jarayonida subyektlarda qadriyatga yo‘naltirilgan munosabatning (o‘zaro hurmat, o‘zaro ishonch, o‘zaro bir-birini tushunish, mas‘uliyatni ongli his etishda subyektlarning o‘zaro birgalikdagi faoliyatga qadriyatga yo‘nalganligi) umumiyligi;

subyektlarning o'zaro birgalikdagi harakatining muvofiqligi (o'zaro birgalikda maqsadni belgilay olish ko'nikmasi, unga erishish usullarini rejalashtirish, belgilangan chora-tadbirlarni amalga oshirish, maqsadga erishishni hamkorlikda nazorat qilish, olingan natijalar asosida yangi maqsad va vazifalarni aniqlashtirish); faoliyatli-guruhiy mezonlar – o'zaro birgalikdagi harakatning intensivligi, jamoadagi emotsional-psixologik muhitdir[4].

Muhokama

Ta'lim jarayonida hamkorlik pedagogikasining samarali qo'llanishi o'quvchilarning nafaqat bilim olish jarayonini, balki ularning shaxsiy va ijtimoiy rivojlanishini ham ta'minlaydi. Yuqorida qayd etilgan tashkiliy-pedagogik, psixologik va uslubiy asoslar hamkorlik texnologiyalarining mustahkam poydevori hisoblanadi. Chunonchi, ta'lim jarayonida reja va dasturlarni to'g'ri tashkil etish, DTS talablari asosida yangi bilimlarni o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish o'quvchilarni faol ishtirok etishga undaydi. Bu esa o'quvchining o'quv jarayoniga mas'uliyat bilan yondashishini kuchaytiradi.

Psixologik asoslarning mavjudligi, ya'ni o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olish, darslarda erkin muloqot muhitini yaratish o'quvchilarning o'z fikrini bemalol bildirishiga sharoit yaratadi. Bu jarayon ularni mustaqil qarashlarga ega bo'lishga, tanqidiy va ijodiy fikrlashga yo'naltiradi. Shu bilan birga, dars mazmunida qo'llaniladigan atamalar, tushunchalar va formulalarning o'quvchilar uchun tushunarli bo'lishi ham ularning bilimlarni ongli ravishda o'zlashtirishiga yordam beradi.

Hamkorlik texnologiyalarining uslubiy asoslari esa o'quvchilarda birgalikda ishlash, jamoada o'z o'rnini topish, mas'uliyatni bo'lishish va o'zaro yordam ko'rsatish kabi muhim ko'nikmalarni rivojlantiradi. Bu holat o'quvchilar orasida nafaqat bilim almashuvini, balki hamjihatlik va o'zaro ishonchni shakllantiradi. Shu

tariqa, konsensus va hamjihatlik tamoyillari asosida tashkil etilgan hamkorlik pedagogikasi ta'lim jarayonini yanada samarali va insonparvar qilishga xizmat qiladi.

Xulosa qilib aytganda, hamkorlik pedagogikasini o'qitish jarayoniga keng joriy etish bugungi kunda dolzarb masala bo'lib, uning amaliyotga tatbiqi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, ijodkorlik va ijtimoiy faollikni rivojlantirishda muhim omil hisoblanadi.

Ta'lim-tarbiya sifatini takomillashtirish xar bir ta'lim tizimida faoliyat olib borayotgan pedagog kadrlarning asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Pedagog mutaxassislar ta'lim tizimini takomillashtirish deganda ta'lim-tarbiya jarayonlari faoliyatini tizimli loyihalashtirish va pedagogik qo'llab-quvvatlash, mavjud va amalga oshirilgan faoliyatlarni qayta aloqaning intensivligini ta'minlash, pedagogik tizimning ochiqligi, dinamikligi, statistikligi, o'quvchilarning o'z-o'zini boshqarish va rivojlantirishi, intellektual, xissiy, axloqiy, madaniy, jismoniy imkoniyatlarini yanada faollashtirishga erishish tushuniladi[5]. Bu kabi vazifalarga erishish uchun hamkorlik pedagogikasi asosida ta'lim-tarbiya sifatini takomillashtirishning asosiy vazifalarini belgilash va ularni amalga oshirishning pedagogik imkoniyatlarini ishlab chiqishdan iborat.

Hamkorlik pedagogikasini ta'lim jarayoniga tatbiq etish bir nechta muhim jihatlarni o'z ichiga oladi:

- **Tashkiliy-pedagogik asoslar** – dars rejasi, dastur va DTS talablariga muvofiq, o'quvchilarning hamkorlikda ishlashiga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish;
- **Psixologik asoslar** – o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlarini inobatga olib, ular uchun erkin muloqot muhitini tashkil etish, bilimlarni tushunarli tarzda bayon etish;
- **Uslubiy asoslar** – o'quvchilarda ijodkorlik, tanqidiy fikrlash, jamoaviy ishlash va o'zaro yordam ko'nikmalarini rivojlantiruvchi metod va texnologiyalarni qo'llash.

Xulosa

Ta'lim jarayonida hamkorlik pedagogikasini qo'llash bugungi kunda dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Ushbu yondashuv o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasida o'zaro hamkorlik, ishonch va mas'uliyatga asoslangan faoliyatni tashkil etishga xizmat qiladi. Hamkorlikka asoslangan darslar orqali o'quvchilarda nafaqat bilim va ko'nikmalar, balki ijodkorlik, mustaqil fikrlash, jamoada ishlash, bag'rikenglik va o'zaro yordam kabi hayotiy zarur sifatlar shakllanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Асқарова Ў.М. Меҳрибонлик уйи тарбияланувчиларини ижтимоий ҳаётга тайёрлашнинг педагогик механизмларини такомиллаштириш (DSc) ...дисс, Наманган, 2019
2. <https://oyina.uz/uz/teahause/2767>
3. Kamolova, A., & Ergasheva, G. S. Q. (2022). Yosh avlodni tarbiyalashda xalq pedagogikasini manbalarining o'rganishning o'rganishning ilmiy-nazariy asoslari. Science and Education, 3(12), 590-592.
4. Karimov I.A. *Yuksak ma'naviyat – yengilmas kuch.* – Toshkent: Ma'naviyat, 2008.
5. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M. Mirziyoyevning ta'lim-tarbiya masalalariga oid nutq va asarlari.
6. Davlat ta'lim standartlari (DTS) – Boshlang'ich ta'lim uchun o'quv dasturlari. – Toshkent, 2021.
7. Abdullaeva Q., Xoliqberdiyev K. *Pedagogika.* – Toshkent: O'qituvchi, 2015.
8. Qodirov A. *Pedagogik texnologiyalar va interfaol metodlar.* – Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.